

**BOLA RIVOJLANISHIDA O'YIN FAOLIYATINING PSIXOLOGIK TASIRI****Dildora Roxatova**

Namangan viloyati chust tumani

7- sonli maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sog'lom avlodni voyaga yetkazishda oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rni hamda oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: Dastur, poydevor tushunchasi, texnik, aqliy kamolot, dunyoqarash, insoniy e'tiqod, mahsuli, ijtimoiy, yondashuv, barkamol insonni.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori qabul qilindi. Dastur asosida keng ko'lamli kompleks tadbirlarni amalga oshirib kelinmoqda. Bolalarni bog'chaga qamrab olish haqida gapirganda, 2017 yil 7 dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirda Prezident Shavkat Mirziyoev tomonidan bildirilgan quyidagi fikrlarni ta'kidlash maqsadga muvofiqdir: Bola bog'chaga sog'lom turmush asosida, maktabga tayyor bo'lib voyaga etadi. Hurmatli ayollarimiz bolasidan ko'ngli to'q bo'lib, ijtimoiy mehnat bilan, uy-ro'zg'or ishlari bilan shug'ullanadi. Qolaversa, ularda dam olish, o'z sog'lig'i haqida o'ylash uchun ozgina bo'lsa ham sharoit paydo bo'ladi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim sohasidagina shunday ulkan islohotlarni hayotga joriy etish biz uchun ham qarz, ham farzdir. Qanchalik qiyin bo'lmasin, bu tarixiy vazifani amalga oshirishimiz shart va uni barchamiz birgalikda albatta bajaramiz deb ta'kidlagan edi. Respublikamizda bugungi kunda besh mingga yaqin maktabgacha ta'lim muassasasida 3-7 yoshgacha bo'lgan 2.3 million bolani 31% maktabgacha ta'lim muassasasiga qamrab olingan. Oilada tarbiyaning negizlariga asos solinadi. U bolada shakllanishi lozim bo'lgan barcha insoniy



munosabat va fazilatlarni tarbiyalovchi hayot maktabi hisoblanadi. O'zbek xalqi tabiatan bolajon xalq. Bolaga nisbatan bag'ri kenglik, mehri daryolik o'ta fidoyilik o'zbeklargagina xos xususiyatdir. Shu boisdan ham, ota-onalarimiz farzandlarning baxti va kelajagi uchun qayg'uradi. Ularning puxta bilim olishlari, qiziqishlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, axloq-odob qoidalarini mukammal bilishlari va ularga amal qilishlari uchun mavjud imkoniyatlarni yaratadilar. Chunki oilada to'g'ri tarbiyalash-mustahkam poydevorli jamiyat barpo etilishining sharovidir. Bola tarbiyasi keng qamrovli, uzoq davom etadigan murakkab jarayon bo'lib, uning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Bolalarga maktabgacha ta'lim muassasalarida xalq va yurt taqdiri uchun fidoiylilik tuyg'usini shakllantirish tarbiyada muhim o'rin tutadi. Buning uchun bola hayotining dastlabki yillaridan boshlab, uni moddiy olam bilan tanishtirish hamda milliy an'analarimizga xos shakllarini qo'llash lozim. Bu jarayonda milliy turmush tarzimizga yot bo'lgan «jangari» o'yinchoqlar, multfilmlar, kinofilmlardan imkon qadar foydalanmaslik davr talabidir. Sharqona odob va bashariyatning ezgu intilishlarini aks ettiruvchi o'yinlar, o'yinchoqlar, rasmlar, kitobchalar, milliy ertaklar asosida yaratilgan multfilmlar bolalar tarbiyasining to'g'ri shakllanishida asosiy vosita bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, tarbiya tushunchasi o'sib kelayotgan avlodda hosil qilingan bilimlar asosida aqliy kamolot – dunyoqarashni, insoniy e'tiqod, burch va mas'uliyatni, jamiyatimiz kishilariga xos bo'lgan axloqiy fazilatlarni yaratishdagi maqsadni ifodalaydi. Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tadbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish lozim. Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda oila, maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi hozirgi kunda keng yo'lga qo'yilgan. Shaxs tafakkuridagi har qanday shakllanish, har qanday e'tiqod tarbiyasi va hatto g'oyaviy va mafkuraviy immunitet oilada shakllanishi kerak. Yoshlarning vatanparvarligi oiladagi tarbiya va mahalladagi ma'naviy muhitdan boshlanadi, o'z oila va mahallasini qadrlamagan inson Vatanini ham qadrlashi qiyin



kechadi. Shunday qilib, Sog'lom avlodni voyaga yetkazishda oila, maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiya maskani bo'lib, shaxsning kelajagi shu maskanda tarbiyaning qanday amalga oshirilishiga, tarbiyachi hisoblanmish ota-onaning o'z burch va vazifalariga qanday munosabatda bo'lishiga bog'liqdir. Oiladagi har bir kishining o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan yondashishi oila mustahkamligi, jamiyat farovonligiga erishishning omilidir.

Xullas, barkamol insonni, ya'ni avvalo oila uchun, qolaversa o'zi yashab turgan jamiyat, xalq uchun fidoyi, shaxsni tarbiyalash oila, maktabgacha ta'lim muassasasidan boshlanadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tarbiyachilari, bola tarbiyasiga diqqat-e'tiborni qaratishlari zarur.

Bolaning emotsional faolligi bu - uning atrof dunyoni qiziquvchan, emotsional qabul qilishi, unda ishtirok etishi, unga to'g'ri baho berishni bilishdir. Emotsional faol bola boshqalarning tashvishiga, zulmiga befarq qololmaydi. Emotsional faollik odamlar bilan, atrof dunyo bilan o'zaro munosabat, muloqotga talabni rivojlanishiga undaydi.

Esda tutish lozimki, bolaning tanishi, his etishi orqali, bola muloqotining rivojlanishi fantaziyasi va o'y-fikrlari rivojlanadi. Shuning uchun bolaning faolligi rivojlanishining eng muhim yo'llaridan biri bu tasavvur etuvchi holatdir. Bu holat bolani o'qitish jarayonini tabiiy, erkin bo'lishini ta'minlaydi.

Shu jihatdan olganda, oila va maktabgacha ta'lim muassasining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos insonni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. o'yin-spektakllardir. Bu orqali bolalar o'z ichki dunyosini ijodiy, ijtimoiy, ularga tushunarli yo'llar bilan boyitadi. Bunday qimmatli imkoniyat bola uchun ertak qahramoni tarafida bo'lishi uchun zarurdir. Kutilmagan holatlar va yangilik elementlaridan foydalanish mumkin. Mashg'ulotning bunday boshlanishi bolani qiziqtiradi, unda topishmoqni tezroq topish istagi o'yg'onadi. Mashg'ulotingizdagi yangilik uning qanday shaklda qayerda o'tkazilayotganligi bilan birga ishtirokchilar va mashg'ulotga ham bog'liq. Kulgi va hazil ham juda yordam beradi. Bu usul bolaga predmetlarga boshqa tomonlama qarashga ham imkon berib, kattalar o'rtasidagi chegarani olib tashlashiga imkon beradi. Bunda pedagogik va insoniy harakatlarni, oqko'ngillikni unutmaslik lozim. Bir mashg'ulotda pedagog bir necha



usullardan foydalanishi mumkinki, bunda bolaning emotsial faolligi rivojlanishiga kompleks yondashuv bo‘ladi. xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki bola shakllanishida o‘yin faoliyatining o‘rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. “Konstitutsiya— erkin va farovon xayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi.
3. Munavvarov Oila pedagogikasi T.1994y.